

IJTIMOIY NORMA VA QADRIYATLARNING SHAXS PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi

Alfraganus Universiteti, Pedagogika
fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari)
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada ijtimoiy norma va qadriyatlarning shaxs psixologik rivojlanishiga, xulq-atvoriga va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlariga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, turli madaniyat va ijtimoiy guruhlar misolida qadriyatlarning farqlanishi va ular asosida shakllanadigan psixologik moslashuv strategiyalari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy norma, qadriyatlar, ijtimoiy muhit, xulq-atvor, psixologik rivojlanish, madaniyat, ijtimoiy guruh, strategiya,

Insonning psixologik rivojlanib kamol topishi, xulq-atvori va ijtimoiy muhit bilan aloqasi uning faqat biologik omillarigagina bog'liq bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-madaniy omillarga ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy norma va qadriyatlar tizimi — shaxs ongini shakllantiruvchi, uning jamiyatdagi rolini belgilovchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Har bir jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlar va qadriyatlar inson ruhiyatini, axloqiy qarashlarini hamda ijtimoiy faoliyatini boshqaradi.

Ijtimoiy norma — bu jamiyat tomonidan ma'qullangan, odatiy, qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridir. Ular shaxsning qanday harakat qilish kerakligini belgilab beradi va shaxsga ijtimoiy nazorat o'rnatadi. Bu qoidalar yozma holda ya'ni unga qonunlarni misol qilib keltirish mumkin yoki og'zaki tarzdagilarga esa urf-odatlar, an'analar kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Qadriyatlar esa — insonlar uchun muhim bo'lgan e'tiqodlar, axloqiy mezonlar hisoblanadi. Ular hayotga bo'lgan munosabatni belgilaydi, shaxsiyatning ichki dunyosini shakllantiradi.

Shaxsning rivojlanishida ijtimoiy norma va qadriyatlarning o'rni quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. *Axloqiy mezonlarning shakllanishi – Qadriyatlar bolalikdan boshlab ongga singdirilib, yaxshilik-yomonlik, to'g'ri-noto'g'ri kabi xulosalarni shakllantiradi.*
2. *Ijtimoiy identifikatsiya – Shaxs o'zini jamiyat bilan tenglashtirib, kimligi va rolini anglaydi.*
3. *Ichki nazorat tizimi – Normativ qadriyatlar shaxsda o'zini nazorat qilish, ijtimoiy qabul qilingan me'yorlarga amal qilish ko'nikmasini hosil qiladi.*
4. *Motivatsiya tizimi – bunda qadriyatlar shaxs harakatlariga turtki bo'lib xizmat qiladi masalan, ma'suliyat, erkinlik, vatanparvarlik kabi xislatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.*

Ijtimoiy norma va qadriyatlar xulq-atvorning moslashuvchanligini, o'zgaruvchanligini taminlaydi va odamlar o'rtasida muvozanatni saqlashni o'rgatadi

Moslashuvchanligi yani – jamiyat qoidalariga muvofiq yashashni o'rgatadi

Xulq atvor o'zgaruvchanligini belgilaydi – zamonaviy qadriyatlar ta'sirida shaxs xulqida yangiliklar yuzaga keladi.

Masalan, bolalar orasida do'stlik, hurmat, tartibga amal qilish kabi qadriyatlar ijobiy xulq-atvorni rivojlantiradi. Aksincha, bu qadriyatlar zaif bo'lgan muhitda tajovuzkorlik, befarqlik va ijtimoiy begonalashuv hollari ko'payadi.

Ijtimoiy norma va qadriyatlar shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtiradi.

Shaxsga itimoiy rollarni aniqlashga yordam beradi yani– ota-ona, o'qituvchi, rahbar kabi rollar qoidalar asosida bajariladi.

Konfliktlarning oldini oladi yoki ularni boshqarishga yordam beradi.

Bunda, ijtimoiy muhit (oila, maktab, ommaviy axborot vositalari, do'stlar guruhi) asosiy vositachilar hisoblanadi. Ular orqali ijtimoiy norma va qadriyatlar avloddan-avlodga o'tadi.

Har bir jamiyat va ijtimoiy guruh o'ziga xos qadriyatlar tizimiga ega. Ushbu qadriyatlar insonning xulq-atvori, ijtimoiy rollari, dunyoqarashi, va psixologik moslashuv uslublarini belgilaydi. Ayniqsa, globalizatsiya, migratsiya va ko'p madaniyatli jamiyatlarda yashovchi shaxslar uchun psixologik moslashuv — dolzarb masalalardan biridir.

Ijtimoiy guruhlar (yoshlar, diniy guruhlar, etnik guruhlar, gender guruhlari) o'z qadriyatlarini jamiyat umumiy qadriyatlaridan farqli ravishda shakllantirishi mumkin. Masalan: **Yoshlar** — yangilikka ochiqlik, o'zligini izlash qadriyatlariga etibor qaratadilar.

Diniy guruhlar — muqaddaslik, itoat, poklik kabi qadriyatlarga sodiq bo'ladilar, va shunga da'vat etadilar.

Gender guruhlari — ijtimoiy rolda farqlar: erkaklar ko'proq dominantlik, ayollar esa g'amxo'rlik qadriyatlarini afzal ko'radilar

John Berry'ning madaniyatlararo moslashuv modeli:

Berry shaxsning yangi madaniyatga moslashuvi uchun *to'rtta asosiy strategiyani* taklif qiladi:

Bular:

1. **Integratsiya** Asl madaniyatni saqlagan holda yangi madaniyatga moslashish
2. **Assimilyatsiya** O'z madaniyatidan voz kechib, yangi madaniyatni to'liq qabul qilish
3. **Separatsiya** Yangi madaniyatdan yiroq yurish, asl qadriyatlarni saqlash
4. **Marginalizatsiya** Hech bir madaniyat bilan bog'lanmaganlik

Bugungi globallashuv davrida:

Madaniy pluralizm qadriyatlar xilma-xilligini kuchaytirib yubordi.

Internet va ommaviy axborot vositalari orqali an'anaviy qadriyatlar siljimoqda.

Individualizm va iste'molchilik qadriyatlari ijtimoiy birdamlikni zaiflashtirmoqda.

Shu sababli, ijtimoiy psixologiyada qadriyatlar tizimining zamonaviy yangilanishi va shaxsga uyg'un ravishda rivojlantirilishi dolzarb masalaga aylangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy norma va qadriyatlarni inson shakllanib rivoj topib yetuk komil shaxs bo'lishida ahamiyati katta hisoblanadi.

Ijtimoiy va ruhiy tomondan sog'lom rivojlanishi uchun ta'siri kattadir. Shaxsiy rivojlanishda ham qadriyatlar tizimining o'rni beqiyos hisoblanadi. Ijtimoiy norma va qadriyatlarga doim nazar solib o'rganmoq juda muhim sanaladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Vygotskiy L.S. Psixologik taraqqiyot nazariyalari. – M.: Pedagogika, 1991.
3. Xusanov B. Ma'naviyat asoslari. – T.: O'zbekiston, 2016.
4. Allport G. Shaxsiyat nazariyasi. – T.: O'zbekiston, 2002.
5. Ergashev I., Abdullaeva N. Ijtimoiy psixologiya. – T.: TDPU, 2019.
6. Muminova M. O'zbekiston yoshlarining qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar. Toshkent.2019.
7. Toshpo'latova D. Madaniyatlararo psixologiyaning zamonaviy yo'nalishlari, Psixologiya va hayot, 4-son.2021.
8. Berry, J. W. (1997). Immigration, acculturation, and adaptation. Applied Psychology.